

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

31-AVGUST

ANDIJON, 2024

TEMIR YO'L TRANSPORTIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Rahmonov G'ayrat

TATU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Temir yo'l tizimini rivojlantirish butun temir yo'l tizimini va quyi tizimning barcha jihatlarini, jumladan, infratuzilma, harakatlanuvchi tarkib va signalizatsiyani, shuningdek, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish tajribasini umumiyl chiqur tushunishni talab qiladi. Regulyatorlar, temir yo'l kompaniyalari va infratuzilma menejerlari an'anaviy va zamonaviy texnologiyalarning to'liq yo'l tizimiga xavfsiz va to'g'ri integratsiya qilinishini ta'minlashi kerak. Har bir quyi tizim alohida va yaxlit tizimning bir qismi sifatida xavfsiz va ishonchli ishlashi kerak. Texnik xavfsizlikdan tashqari, umumiyl xavfsizlik operatsion xavfsizlik va kiberxavfsizlikni ham tushunishni talab qilishga tegishli masalalar mazkur maqolada keltirilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti xizmati iqtisodiyoti, xizmatlarni muvofiqlashtirish, xizmat segmenti

Temir yo'l faoliyatida xizmat ko'rsatish bugungi kunda an'anaviy usullardan sanaladi, biroq ko'plab mamlakatlarda temir yo'l sohasiga qaratilgan e'tibor shunchalik chiqurki, unda hatto yirik ko'llarning ustidan, shahar yerosti yo'lida hamda tog'larda o'zining funksiyasiga ko'ra ajratib foydalanishga topshirilgan. Biroq, ularning joriy etilishidagi asosiy sabablar va muammolarga nisbatan yechim sifatida ilgari surilgan bosh loyiham sanaladi va bu tajribadan mamlakatda foydalanish uchun mamlakatning ichki infratuzilmasida yirik o'zgarishlarni talab etadi, vaholangki bu sinov loyihasi bo'lsa ham.

Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish faqatgina tashish bilan cheklanib qolmay, inson omilini inobatga olgan holda uning ko'rsatilayotgan xizmatdan to'laqonli qoniqishi maqsadida ichki etik (ahloqiy), tashqi iktimoiy-iqtisodiy imtiyozlar hamda manzillararo turlar va paketlarni ishlab chiqishlari tashish xizmatini takomillashtirish uchun ham qo'llaniladi. Temir yo'l xizmatining temir yo'l transportlar klassifikatsiyasining funksional maqsadga yo'naltirilganligi asosida olib boriladi. Ba'zi temir yo'l transportlari ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlari assortimentini ko'paytirshiga intilishganlaridek, mazkur sohada ham xizmat ko'rsatishning muvofiqligini ta'minlash uchun xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan temir yo'l transportining asosiy boshqaruv qismlari va tarkibi turlarini o'rganish talab etiladi. Temir yo'l transpotrida xizmat ko'rsatish deganda Yevropa mamlakatlari temir yo'l orqali yuk tashishni hamda uning logistikasini tushunadi. Biroq, temir yo'l transportlarida xizmat ko'rsatish uchun faqatgina tashish emas, balki sifatli va qulay tashishga urg'u bergen holda rivojlantirilishini, shu bilan bir qatorda u orqali va unga doir xizmatlarni ham mutanosib ravishda o'zgartirishiga to'g'ri kelishi kuzatiladi.

Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish undagi vositalarning qamrovi bilan belgilanadi, shunga ko'ra ularning asosiy vositalari lokomotiv, yo'lovchi vagonlar, vagonlar, temir yo'l vagonlari hamda poyezdlar tarkibiga ajratiladi.

Mamlakatimizda kun sayin taraqqiy etib borayotgan temir yo'l sohasi mamlakat bo'ylab infratuzilmasini takomillashtirib borganligiga qaramasdan, jamoat transporti sizfatidagi xizmatini uzuksiz yaxshilashga qaratilgan tendensial chora-tadbirlarni amalga oshirish murakkabliklar tug'diradi. A'lo sifat darajasidagi jamoat transportlari rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda raqobat muhitida ish olib borishadi. Aholi yashash joylarida aholining zichligi yuqori bo'lishiga qaramasdan temir yo'l transportidan jamoat transporti sifatida foydalanish ularni tashishda avomobil transportida tashishga qaraganda samaradorligi yuqoriroq ta'sir etadi. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish faoliyatini samaradorligini oshirish yuzasidan uni baholash borasida bir nechta usullar va yondashuvlar mavjud bo'lib, ular


ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

31-AVGUST

ANDIJON, 2024

mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi hamda uning o'zaro integratsion holatiga ko'ra turlicha tadqiq etiladi.

Xitoy o'zining zich aholisi hamda o'ta tezkor savdo aylanmasiga ega mamlakat sanalgani bois mahsulotlarni dunyo bo'ylab yetkazish maqsadida barcha turlardan keng foydalaniladi, bularning qatorida eng birinchi o'rinda temir yo'l transporti sanalib, uning sifatini doimiy nazorat qilib borishga indekatsion yondashiladi. Buning uchun uch omildan foydalanilgan holda baholashni amalga oshirishni Xitoy olimlari L.Chjan, Ts, Chen, S.Tsuy tomonidan ilgari surilgan bo'lib, hozirda uning CRITIC nomli usulining raqamlashtirilishi ko'rinishida AQSh, Shvetsiya, Norvegiya, Kanada singari mamlakatlar foydalanishadi. Mazkur olimlarning taklif etgan baholash usullari temir yo'l faoliyatini indekslar yordamida, aniqroq izohlaganda temir yo'l xavfsizligi, uning infratuzilmaviy holati, uskunalar bilan jihozlanganligi, qulaylikni tavsiflovchi innovatsion buyumlarni ekspluatatsiya samaradorligi va bugungi kunda muhim sanalgan yashil rivojlanishni aniqlaydi. Ikkinci omil ostida ular tomonidan ilgari surilgan har bir indeksning mezonlararo korrelyatsiya (CRITIC) usulidan keng foydalanish asosida mezonlarning og'ma va ta'sir ahamiyatidan xulosalashni taklif etganlar. Navbatdagi omil sifatida temir yo'l transporti xizmatlarining samaradorligi CRITIC usulidan nisbiy entropiya nuqtasidan foydalanish orqali ko'p mezonli va mayorlarga tayangan qarorlar qabul qilish MCDM deb nomlanadi. Baholash usullarining ketma-ketlikda foydalanish orqali empirik tahlil natijalarini xulosalash Xitoy temir yo'l byurolarining qay darajada temir yo'l transporti xizmatini ko'rsatish ko'rsatkichlarining rivojlanganligini, shuningdek hududiy joylashuvlarga ko'ra temir yo'l byurolari o'rtasidagi ustunliklar, kamchiliklar hamda aniq farqlarni namoyon etadi.¹ Unlarning uch omilli baholash usulining bosqichlari quvida keltirilgan:



¹ Liangliang Zhang, Qian Cheng, Siyuan Qu, "Evaluation of Railway Transportation Performance Based on CRITIC-Relative Entropy Method in China", Journal of Advanced Transportation, vol. 2023, Article ID 5257482, 11 pages, 2023. <https://doi.org/10.1155/2023/5257482>

² S. Liu, T. Zhang, and R. Wang, "Chinese railways development level research based on entropy," Frontiers in Artificial Intelligence and Applications, vol. 314, pp. 305–313, 2019.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

31-AVGUST

ANDIJON, 2024

Mazkur baholash usulining asosiy ustunligi shundaki, uning kesishgan korrelyatsion³, entropiyaning ta'sir doirasidagi faktorial⁴ va optionlari⁵ni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Bu kabi baholash usulini mamlakatimizdagi temit yo'l faoliyatida tadbiq qilish uchun dastavval baholash usulini tarkibini shakllantirish lozim bo'ladi. Italiya iqtisodchi olimlari L.Eboli, Y.Fu, G.Mazzullalarning temir yo'l xizmatlari sifatini ko'p bosqichli kompleks baholash yuzasidan 26 ta indikatorni tavsiflovchi modeldan foydalanishni taklif etganlar (2-rasm).

Xavfsizlik

- sayohat xavfsizligi
- poezddagi shaxsiy xavfsizlik
- stansiyadagi shaxsiy xavfsizlik

Tozalik

- Vagonning tozaligi
- o'rindiqlarning tozaligi va umumiy holati,
- hojatxonalarning tozaligi
- bekatlarning tozaligi
- bekatning texnik xizmat ko'rsatishi
- bekatdagi bezaklari tozaligi

Qulaylik

- bortdagi qulay harorat
- bortda ishlaydigan deraza va eshiklar

Xizmat

- chipta narxi
- qatnov jadvallari poyezdlarning o'z vaqtida harakatlanishi
- muntazam poyezdlar jadvalini, narxlarning boshqa jamoat transporti bilan integratsiyasini va mintaqadagi vokzallarni taqsimlash

Boshqa

- jo'nash stantsiyasida to'xtash joyi
- bortdagi velosipedlar
- nogironlar uchun qulaylik

Ma'lumot

- stantsiyalarda aniq va tezkor ma'lumot
- bortda aniq va tezkor ma'lumot
- poyezdga qulay ularishlar va boshqa transport turlari haqida ma'lumotlar

Xodimlar

- sayohat xodimlarining xushmuomalaligi va malakasi
- chiptalarni nazorat qilish chastotasi va to'g'riliqi
- stansiya xodimlarining xushmuomalaligi va malakasi

2-rasm. Temir yo'l xizmatlari sifatini ko'p bosqichli kompleks baholash indikatorlari⁶

³ Michali, M., Emrouznejad, A., Dehnokhalaji, A., et al.: Noise-pollution efficiency analysis of European railways: A network DEA model. Transp. Res.: Part D 98, 102980 (2021)

⁴ Zhang, L., Hua, X.: Evaluating efficiency of railway transportation based on cross-efficiency evaluation method and relative entropy evaluation method in China. IET Intell. Transp. Syst. 17, 2410–2418 (2023). <https://doi.org/10.1049/itr2.12420>

⁵ Liang, Z.J., Lei, L.: Research on input-output efficiency evaluation of China railway freight cars based on two-stage network DEA model. Railway Transp. Econ. 43(9), 13–18 (2021)

⁶ Laura Eboli, Yanbing Fu, Gabriella Mazzulla, Multilevel Comprehensive Evaluation of the Railway Service Quality,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

31-AVGUST

ANDIJON, 2024

Temir yo'l tashish sifatini baholash uchun ko'rsatkichlarni tanlashda yo'lovchi tashish xususiyatlarini, yo'lovchilarga bo'lgan talabni va temir yo'l transporti korxonasining imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Tranzit xizmatlari sifatini aniqlashga asoslanib, model temir yo'l xizmatlari sifatini baholash uchun ba'zi asosiy ko'rsatkichlarni taqdim etadi. Xususan, xavfsizlikni ta'minlash yo'lovchi tashish kompaniyasi uchun muhim masala bo'lib, yo'lovchilar ko'pincha o'z tajribalariga asoslanib xavfsizroq deb hisoblaydigan transport kompaniyasini tanlashadi. Shuningdek, bugungi kunda barcha yo'lovchilar toza transport turini tanlaydilar va bunga o'ta injiqlik bilan yondashadilar.

Konfort, odatda, sayohat paytida temir yo'l sayohatining umumiy tajribasini anglatadi, yo'lovchilar sayohatlari qulayligiga borgan sari yuqori talablarni qo'yadi. Bu xizmatni aniq tavsiflashga ta'sir etadi. Jumladan, transport yo'lovchilarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishni ta'minlanishi uchun xizmat tavsiflari taklif etilayotgan xizmatdan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Shuningdek, yo'lovchining poyezd safaridan oldin va undan keyingi xizmatlarga tegishli bo'lib, "Boshqalar"ni tasvirlash uchun indikatorlarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlar yo'lovchilar uchun juda foydali. Ta'riflangan ma'lumotlarga qarab yo'lovchilar ichki hotirjamlik asosida rejaviy harakatlanadilar, ma'lumotning yetarlimasligi ko'plab xato va noroziliklarga sabab bo'lishi, bu esa kompaniya uchun qimmatha tushishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Raxmonov, G. (2024). Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarining tajribasi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(4). Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1940>
2. Raxmonov, G. (2024). Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(4). Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1943>
3. Ismatulloyevich R. G. THE IMPACT OF CYBER THREATS ON E-COMMERCE SITES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – No. 10. – C. 274-284.
4. Iminova N. A., Bobojonova Z. S. ISHBILARMONLIK ETIKASINING ASOSIY QADRIYATLARI //International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London). – 2024. – T. 2. – C. 33-36.